O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Ijtimoiy - iqtisodiyot

Yo'nalish: Ijtimoiy ish

Fan: Madaniyat sotsiologiyasi

# KURS ISHI

Mavzu: **ЖАМОАДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА РАҲБАР ОБРЎСИНИНГ АҲАМИЯТИ**


Bajardi: Чутбоев Машраб

Tekshirdi: dost. Bo'riyev N.


Samarqand

**МАВЗУ:ЖАМОАДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА РАҲБАР ОБРЎСИНИНГ АҲАМИЯТИ.**

**РЕЖА:**

1. **Жамоадаги зиддиятларни бартараф этишда раҳбар обрўсининг аҳамияти.**
2. **Ziddiyatlarning mavjud bo'lishi kurashuvchi taraflar tomonidan anglashilmaydigan yenl o'zgaruvchi vaziyatlarga bogliqligi.**
3. **Konflikt asosida yotuvchi ziddiyatlarni bartaraf etishning asosiy usullari.**
4. **F.M.Borodkin va N.M.Koryak mexnat jamoalarida turli konfliktli vaziyatlarni taxlil etishi.**

Konfliktli o’zaro munosabatlarning aralash variantlari ko’p uchrab turadi. Masalan, jamoat tashkilotlari (siyosiy partiya, kasaba uyushmasi) bilan davlat organlari o’rtasida konflikt dastlab yuzaga kelganda, ijtimoiy xarakterga ega bo’lmasli mumkin, birok keyinchalik xukukiy konfliktga aylanib, u yoki bu konunchilik normalari (konstitusiyaviy, ma’muriy, moliyaviy) ta’siriga tushishi mumkin. Ijtimoiy konfliktlarning aralash tiplari fukarolar o’rtasida o’zaro munosabatlarda, ayniksa, ish joyida yoki turar joyida uzok davom etuvchi nizolarda uchrab turadi. Masalan, oilaviy janjal sifatida boshlangan konflikt - ma’muriy xukukbuzarlik, xatto jinoyatga (kaltaklash, bezorilik) o’tishi mumkin; muassasada ma’muriy o’zaro munosabatlar mexnat, ba’zida xukukning turli soxalari bilan tartibga solinadigan siyosiy konfliktga aylanishi mumkin. Milliy munosabatlar soxasida konfliktlar ijtimoiy nuktai nazardan ko’pincha ko’p tarmokli xarakterga ega. Ularga: konstitusiyaviy, ma’muriy, fukarolik, jinoiy, prosessual, xalkaro xukuk normalari ko’llanilishi mumkin.

Konfliktlarni organlar tizimi bo’yicha tasniflash xammadan xam fukarolar uchun foydali, chunki ular turli nizoli masalalarni xal etish uchun kayerga murojaat etishlari to’¦risida anik ma’lumotga ega bo’lishlari kerak. Ma’lumki, xayotiy vaziyat o’zining ko’p jixatlari bo’yicha turlicha bo’lishi mumkin. Inson turmushi yoki ijtimoiy gurux mavjud bo’lishi xolatlari o’zgaruvchan, tezlik bilan yoki aksincha,sekinlik bilan kechuvchi , uzok vakt o’zgarmaydigan tarzda o’tishi mumkin.Ular muayyan ma’naviy muxit va u yoki bu darajada moddiy ne’matlar bilan xarakterlanishi mumkin. Ular subyektlarning xududiy joylashuvi, turli ijtimoiy iyerarxiyalar va boshka ko’p omillar bilan bog’lik.

Konfliktli vaziyat deganda insonlar manfaatlari bilan boglik bunday xolatlarning shunday jamlanishiki, bu ijtimoiy subyektlar o'rtasida real karama-karshilik uchun obyektiv tarzda nez yaratadi.Bu ta'rifni batafsil ko'rib chiksak, vaziyatning bosh xususiyati bu konflikt predmetining vujudga kelishidir.Vaziyat, konfliktdan oldin yuzaga kelishi uchun u taraflar tomonidan xali foydalanmasli va xatto to'la ma'noda anglanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, ilmiy muassasada shtatlar kiskarishi kutilmokda. Ko'p xodimlar, ayniksa, nafaka yoshidalar bu tadbir ta'siri ostiga tushishlari mumkin. U yoki bu lavozimlarni tugatish xakida masala kun tartibiga anik ko'yilmaganli uchun konfliktni vujudga kelganli xakida gapirish ertalik kiladi. Birok, konfliktli vaziyat bor, chunki bo'lishi kutilayotgan kelishmovchiliklar predmeti va kurash mavjud, jamoada tanglik paydo bulgan, bu vaziyat ishtirokchilarining keyin xarakatlarini yuzaga chikaradi , bellab beradi.

F.M.Borodkin va N.M.Koryak mexnat jamoalarida turli konfliktli vaziyatlarni taxlil etib, tashkilotlarda konfliktlar uchun nez yaratuvchi turli tipik vaziyatlarni kuyidacha umumlashtirganlar: a) tashkilotlarning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida texnolok alokalarning nomuayyanli; b) turli farmoyishlar beruvchi ko'p sonli boshliklarning mavjudli; v) bir boshlikka bo'ysunuvchi xodimlarning ko'p mikdorda bo'lishi, bu boshkaruvda tartibsizlikni yuzaga keltiradi; g) mas'uliyatni bir xodimdan ikkinchisiga o'tkazish, bu umumiy mas'uliyatsizlik xolatini yuzaga keltiradi; d) bir kator xodimlarning uncha yukori bo'lmagan shaxsiy va ishchanlik sifatlariga ega bo'lishi. Tabiiyki, shunday sharoitlarda jamoada konflikt va ziddiyatni yuzaga kelishi juda tez yuz beradi. Bu ruyxatga tanglikni yuzaga keltiruvchi yana kator boshka omillarni kiritish mumkin, masalan, boshkaruv tizimini kayta tashkil kilish, yukori idoralarning shtatlar kiskarishi xakida ko'rsatmalari, ish xakini to'lash bilan boglik kiyinchiliklar va b.

Xalkaro soxada konfliktli vaziyatlar o'ta murakkab va turlichadir. Masalan, Dnestr bo'yi respublikalarida Moldova xukumati bilan shu xududda rus tilida so'zlashuvchi axoli o'rtasida konflikt yuzaga kelgan. Bu xududda taraflar karama-karshilining boshlanishi Moldaviya SSR Oliy Soveti til xakida konunning muxokama kilinayotgan vakt, ya'ni 1989 yilning yoz-kuz fasliga to'g'ri kelgan, bu

konun moldav tilini butun respublika xududi uchun yagona davlat tili sifatida tasdikladi. Bunga javoban Dnestr bo'yining ko'p korxonalarida mexnat jamoalari kengashlari tuzilib, ular bu masala yuzasidan referendum o'tkazilishini talab etganlar. Bu talab respublika xukumati tomonidan rad etilgan. Dnestr bo'yi konfliktining boshlanishi shunday yuz bergan.

Konfliktli vaziyat obyektiv ravishda bo'lgsi karama-karshi taraflar erki va xoxishidan tashkari (masalan, muassasada shtatlar kiskarishi) yoki taraflardan birining yoxud ikkisining xoxishi bilan yuzaga kelishi mumkin. Bunda shu narsa juda muximki, xar kanday vaziyat obyektiv mazmunga (u real mavjud xodisalar bilan bellanishi mumkin) va subyektiv mazmunga (bu xodisalarga taraflarning xar biri kanday ta'sir etishiga boglik) ega, chunki subyekt shulardan kelib chikib konfliktda xarakat kila boshlaydi.

Konfliktli vaziyatni kabul kilish. Konfliktli vaziyatni subyektiv tarzda aks ettirish ishning xakikiy xolatiga to'¦ri kelishi shart emas. Adabiyotda konfliktni anglab olish xar doim o'zida subyektivizm elementini aks ettirishi va shu sababli muayyan darajada buzib aks etilishi xakida fikr to'¦ri bildirilgan.

Dnestr bo'yi vaziyatida moldav raxbarlarining xarakatlarini xarakterlovchi obyektiv faktlar shu xudud axolisi tomonidan tezda il¦ab olingan va tub millatga mansub bo'lmagan shaxslarga nisbatan kamsitilish deb kabul kilingan.

Ko'p o'tmay Dnestr bo'yi avtonomiyasini yaratish maksadida Dnestr bo'yi axoli punktlarining ko'pchilida referendumlar o'tkazilib, ularda ovoz berganlarning ko'pchili suverenitetni yoklagan. Bu xolda barcha vokealarning taxlili shuni ko'rsatadiki, yuzaga kelgan vaziyatni subyektiv baxolash obyektiv xolatlar bilan ko'p darajada mos kelgan. Birok,moldav xukumatining xarakatlarini Dnestr bo'yi axolisi tomonidan Moldaviyada eng ekstremistik xarakat okimlarining shiorlari va chakiriklari bilan bevosita o'xshashdek kabul kilinganlini istisno kilish kerak emas, bu xukumatning diskriminasion maksadlarini ma'lum darajada bo'rttirib yuborishni anglatadi.

Vaziyatni noto'¦ri kabul kilish keng ko'lam kasb etishi mumkin.Ma'lumki,konflikt sababi bo'lib boshka subyektni tushunmaslik

xisoblanishi mumkin. Mutaxassislar «adekvat tushunilmagan» va «soxta» konfliktlar kategoriyalarini ajratadilar[1] .

Birinchisiga shunday xolatlar kiradiki, bunda konfliktli vaziyat mavjud va taraflar uni shundaylicha kabul kiladilar, birok xakikiy axvoldan jiddiy chetga chikkan xolda kabul kiladilar. Jiddiy chetga chikish deganda paydo bo'lgan muammoning ko'lamlarini xaddan ziyod kengaytirish (mutlok xususiy sabab yuzasidan paydo bulgan kelishmovchilik umumiy xarakterga ega kelishmovchilik sifatida noto'¦ri talkin kilinishi mumkin) yoki aksincha uni xaddan ziyod toraytirish mumkin, ya'ni konfliktli vaziyat to'likmas yoki kisman aks etishi mumkin. Boshka turda chetga chikish «shartli» konflikt vaziyatida mavjud bo'ladi, bunda ziddiyatlarning mavjud bo'lishi kurashuvchi taraflar tomonidan anglashilmaydigan yenl o'zgaruvchi vaziyatlarga boglik bo'ladi. Millatlararo konfliktlarda bu xol tez-tez uchraydi.

«Soxta» konfliktda esa obyektiv konfliktli vaziyat butunlay bo'lmaydi, subyektlar o'rtasida birorta ziddiyat yuk, shunga karamasdan taraflar o'zaro munosabatlarining konfliktlilini xis etadilar va karama-karshi kurashni boshlaydilar. Ijtimoiy adabiyotda bu masalada bildirilgan yana bir fikr dikkatga sazovordir, ya'ni : "Insonlar xayotni va unga xos bo'lgan kiyinchiliklarni turlicha tushunadilar, chunki :

- xar birimizda takrorlanmas xarakter va o'ziga xos xayotiy tajriba bor;
- xar birimiz erkak yoki ayol bo'lib tulamiz;
- xar birimiz tulishda muayyan muxitga tushib kolamiz va butunlay boshka tajriba, dunyokarash va rolga ega bo'lamiz;
- xar birimiz turli kadriyatlarga ega bo'lamizki, bular bizning tafakkurimizga va xulk-atvorimizga ta'sir etadi xamda bir xil xarakatlarni sodir kilishga va boshkalaridan voz kechishga majbur kiladi.

Shu sababli biz boshka odamlar bilan tanishganimizda va ishlaganimizda xammamizning aynan bir xil narsalarni turlicha kabul kilishimiz ajablanarli emas».

Yukorida ko’rsatilgan xollarda noadekvat bo’lmagan yoki soxta kabul kilishning ikkala tarafga xosli kam kuzatiladi.Odatda fakat bir subyekt vaziyatni xato yoki buzib, boshkasi esa to’la adekvat xolda tushunadi. Birinchi subyekt vaziyatni konfliktli deb tushunib, shunga mos xarakat kila boshlaydi, boshkasi esa, konfliktli xarakatlarni o’ziga yo’naltirilganlini bilgandan so’ng bu vaziyatni «konfliktli» deb baxolash uchun ko’prok asosga ega bo’ladi. Mabodo ikkinchi subyekt vujudga kelgan muammoning tasodifiylini anglab yetmasa, vaziyatni u tomondan baxolanishi obyektiv bo’la olmaydi.Soxta kabul kilish kimningdir oldindan ko’zlanmagan xarakatlarini kasddan, ataylab kilingan, ya’ni shaxsning muayan manfaatlariga mos keluvchi xarakat deb tushunish bilan bog’lik bo’ladi. Bunday muammoni xal kilish uchun odatda konfliktni boshlagan xarakatlar extiyotsizlik tufayli, kasddan bo’lmaganlini aniklash va tushunish yetarli xisoblanadi. Birok, ko’pincha bu imkoniyatlar e’tibordan chetda koldiriladi va taraflar bir-birlarining xarakatlarida yovuz kasdni ko’radilar, bu esa konfliktning kuchayishi va chukurlashishiga olib keladi.

Konfliktli vaziyatni noadekvat yoki soxta kabul kilishning sababi sifatida karaganda shuni ta’kidlash muximki, agar bunday kabul kilish kognitiv konflikt genezisida bayon kilinayotgan nuktai nazar mazmunini buzib sharxlash bilan boglik bo’lsa, mafaatlar konflikti genezisida esa bu, eng avvalo, opponent motivlarini baxolashda xatolar bilan bellanadi.

Soxta kabul kilish odatda boshkalarning so’zi va xarakatlarini noto’¦ri tushunish bilan boglik. U turli sabablardan kelib chikadi: xabarning ikki xil mazmunga ega bulishi, xabarning dastlabki mazmuniga mulokot matni orkali kiritiladigan xatoliklar bilan va b. Muayyan xolatlarda savol berish yoki xatto xushomad kilishni xakorat sifatida kabul kilinishi kuzatilgan. O’zgalarning xatti-xarakatlarida ma’noni bunday kabul kilishda tafovutlar ko’pincha madaniyatda farklar, mulokotning turli koidalari bilan bellanadi.

Afsuski, xatolik orkasida yuzaga kelgan konflikt keyinchalik guyoki o’zining real predmetiga ega bulgan konflikt kabi avj olishi mumkin. Konflikt jarayonining o’zidayok xakikiy konfliktli vaziyat vujudga keladi. Bunday xolat

ko’pincha kriminal konfliktlarga xos beldir. Shu munosabat bilan A.M.Yakovlev xatto jinoiy xatti-xarakatni yuzaga kelgan vaziyatga nisbatan noadekvat reaksiya sifatida xarakterlagan. Vaziyatni noadekvat baxolashning o’zi turli shaxsiy omillar bilan izoxlanadi: dunyokarashning cheklanganli, ruxiy ta’sirlanish (stress), okibatlarni oldindan ko’ra bilishning sustli, narkotik yoki alkogol ta’sirida bo’lish va x. Bunda vakt omilining xam axamiyati bor: xamma narsani birdaniga obyektiv xal kilish mumkin emas.

Konfliktli vaziyat va shaxs. Shunday kilib, shaxslar o’rtasida konfliktda konfliktli vaziyatni taraflar tomonidan kabul kilish xarakteri katta axamiyatga ega. Yuzaga kelgan vaziyatni e’tiborga olib, shaxs o’z xarakteri va karashlarining xususiyatlariga muvofik xolda xarakat kiladi. Aynan shu narsa bilan bir xil vaziyatda turli kishilar(guruxlar) tomonidan turlicha, ba’zan zid xarakatlar sodir etilishini tushuntirish mumkin. Aynan konkret vaziyat bilan shaxs xususiyatlarining o’zaro ta’siri konfliktni yuzaga keltirishi mumkin yoki odamni undan kutkarishi mumkin.

Latent boskich. Konfliktdan oldin uning latent - yashirin boskichi shart xisoblanib, unda tashki xarakatlarni istisno kilganda konflikt barcha elementlari mavjud bo’ladi.

O’z navbatida bu boskich konflikt rivojlanishining bir kator izchil jarayonlarini yoki davr(etap)larini o’z ichiga oladi.

Birinchi davr - obyektiv konfliktli vaziyatning yuzaga kelish davri.

Ikkinchi davr - bunday vaziyatda subyektlar (yoki xech bo’lmaganda subyektlarning biri) tomonidan o’z manfaatlarini anglab yetish davri.

Uchinchi davr – o’z manfaatlarini kondirish uchun to’sikni anglab yetish (kognitiv konfliktda – o’zga karashlarni anglash) davri. Bu to’siklar uch turda bo’lishi mumkin. Birinchidan, bu to’siklar bo’lgsi konfliktning doimiy ishtirokchilari deb karalishi mumkin bo’lgan boshka shaxslarning

pozisiyalariga boglik emas, balki obyektiv vaziyatdan kelib chikishi mumkin. Masalan, ximiya zavodi atmosferani ifloslantirib atrof-muxitni muxofaza kilish bo'yicha talablarni doimiy ravishda buzib kelgan. Sababi - mazkur kimyoviy ishlab chikarish uchun mo'ljallangan suvni muxofazalash inshootlarining sanoatda ishlab chikilmaganlidadir. Zavodning manfaati - bu mazkur vaziyatni o'zgartirish, oshkora xukukbuzarlikka barxam berishdir. Zavod bilan konfliktlashuvchi tarafning o'zi yo'k. Bu yerda konfliktli vaziyat bevosita konfliktni yuzaga keltirmaydi. Ikkinchidan, ishtirokchilarning o'z subyektiv xususiyatlari ularning manfaatlarini kondirish uchun to'sik bo'lishi mumkin. Masalan, zavod misolida ko'radigan bo'lsak, uning o'zi tozalash inshootlarini o'z kuchlari bilan kurishi mumkin edi, birok kerakli tashabbusni namoyon etmagan. Birok bunda zavodning tashki tartibda konfliktga kirishuvini kuzata olmaymiz. Bu yerda konflikt jamoa ichida bo'lishi mumkin.

Nixoyat, uchinchidan, tashki to'sik mavjud va obyektiv bellangan, masalan, tozalash inshootini kurish uchun ko'shimcha xarajatlarga vazirlikning mansabdor shaxsi tomonidan rozilikning berilmasli. Bu xolatda to'sik yetarli asosda mavjud va anglashilgan, bu esa, konfliktni keyin rivojlanishi uchun muxim shart xisoblanadi.

To'rtinchi davr – o'z manfaatlarini va boshka tarafning teshli karshiliklarini anglash davri.

Beshinchi davr - taraflarning biri tomonidan o'z manfaatlarini ko'llab-kuvvatlash maksadida amalga oshirgan muayyan xarakatlarini o'z ichiga oladi (masalan, zavod ma'muriyatining vazirlikka rasmiy murojaati).

Birok, bu murojaatga berilgan rad javobi konfliktni boshlanishi bo'lib, unda ikkala tarafning pozisiyalari anik shakllangan bo'ladi va bir-biriga nisbatan amaliy xarakatlar boshlanadi. Bu oltinchi davrdir.

Konflikt rivojlanishining oltita davri ko’rsatilgan izchillikda bir-birining o’rniga kelishi shart emas. Ba’zilari tushirilib koldirilishi, boshkalari takrorlanishi, ularning izchilli boshkacha tarzda bo’lishi mumkin. Yukorida keltirilgan mantikiy sxema konflikt tashki rivojlanishining eng tipik misolidir.

Tabiiyki, bunda konflikt ochik shaklga ega bo’ladi, bu esa kamida uch xolat bilan xarakterlanadi. Birinchidan, ishtirokchilarning xar biri uchun konfliktning mavjudli shak-shubxasizdir;

Ikkinchidan, xarakatlar amaliy axamiyat kasb etadi, ular tashki shaklga ega bo’ladi, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, nizoli obyektni egallash bo’yicha xarakatlar sodir etish, zo’rlik, taxdid va b.;

Uchinchidan, latent boskichdan o’tgan konflikt xakida konfliktga u yoki bu darajada ta’sir etishga kodir bo’lgan uchinchi shaxslar, begona shaxslar xabardor bo’ladilar. Bunday ta’sir bir xil axamiyatli bo’lmaydi. U ba’zida konfliktni sustlashtirishi yoki, aksincha, millatlararo konfliktlarda taraflarning yovuz kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin.

Ba’zi konfliktlarda boshkacha darajada konfliktlarga o’tish kuzatiladi, masalan, shaxsiy munosabatlardan guruxlar o’rtasida konfliktga o’tish mumkin.

<u>Tashki xarakatlar.</u> Konflikt odamlar, guruxlar yoki individlar o’rtasida munosabat bo’lganli bois u xar kanday ijtimoiy munosabat kabi yurisprudensiyada yaxshi o’rganilgan ijtimoiy axamiyatli xulk-atvor singari kamida to’rtta elementdan iborat bo’ladi, ya’ni : konflikt subyektlari, obyekti, karama-karshi jarayonning ichki, ruxiy (subyektiv) va tashki (obyektiv) tomonlari. Konfliktli xulk-atvor obyektiv jixatdan konflikt ishtirokchilarining karama-karshi yo’naltirilgan xarakatlaridan iborat. Bu xarakatlar orkali konfliktlashuvchi tomonlarning fikriy, ruxiy, irodaviy

soxalarda yashirin jarayonlari amalga oshiriladi. Xar bir taraf manfaatlarining karor topishiga yo’naltirilgan o’zaro ta’sirning almashinishi va rakib manfaatlarini cheklash ijtimoiy xodisa sifatida konflikt moxiyatini tashkil etadi.

Konflikt tuzilmasini to’lik tushunish va demak, u kanday rivojlangan va okibatda nimani kutish mumkinli xakida tasavvurga ega bo’lish uchun yukorida ko’rsatilgan elementlarni taxlil etish lozim. Ishtirokchilar tashki xarakatlarining o’zi xarakat joyi va vaktiga boglik xolda o’z moxiyatini keskin o’zgartiradi. Vakt omili juda muxim. O’z vaktida erishilmagan bitim yoki aksincha, rad etish konfliktda manfaatdor tomon kutayotgan natijani bermasli yoki teskari natijani berishi mumkin.

Konfliktda barcha xarakatlarni shartli ravishda asosiy va yordamchi xarakatlarga bo’lish mumkin. Asosiy xarakatlar bu manfaatlarda mavjud karama-karshilikni o’zgartirishga olib keluvchi yoki saklab koluvchi bevosita konflikt predmetiga yo’naltirilgan xarakatlardir. Yordamchi xarakatlar asosiy xarakatlarning bajarilishini ta’minlaydi va konflikt markaziy muammosini xal kilishga kodir emas.

Konfliktlashuvchi taraflarning asosiy, tashki xarakatlarini obyektiv nuktai nazarga ko’ra ikki guruxga : tajovuzkor va mudofaa xarakatlariga bo’lish mumkin.

Tajovuzkor xarakatlar dushmanga xujum kilish, uning mulkiga zarar yetkazish, nizoli obyektni ko’lga kiritish, dushmanni ajratib ko’yish, kuvish, tutkinlikka solish va karshi taraf manfaatlarini to’¦ridan-to’¦ri kamsitishga karatilgan boshka xarakatlardan iborat. Ayrim mutaxassislar fikricha, «Zo’rlik - insonlarga jismoniy, ruxiy, ijtimoiy yoki ekolok zarar yetkazish mumkin bo’lgan va/yoki insonlarning o’zlarini to’la namoyon kilishga imkon bermaydigan xarakatlar, so’zlar, ko’rsatmalar, tuzilmalar yoki tizimlardan iborat».

Mudofaa xarakatlari nizoli obyektni ushlab turish, o'z-o'zini ximoya etish, moddiy kiymatlarni yo'k kilinishi yoki zararlanishidan ximoya kilish kabi xarakatlardan iborat.

Taxdid solishlar . Konfliktda ko'rsatilgan xarakat tiplaridan tashkari rakibga ta'sir etish vositasi bo'lgan taxdid solish xam foydalaniladi. Taxdid solishdan maksad bu boshka tomonning manfaatlarini xavf ostida koldirish yoki rakibni o'zining maksadlariga erishishga yordam berishga majburlashdir.

Taxdid solish kurash yoki muzokaralar olib borish jarayonida ko'llanilishi , ba'zida konfliktning mustakil boskichi sifatida karaladi.

Taxdidni ko'llash konfliktda zo'rlik ishlatishga turtki bo'lishi mumkin. Taxdid bu fakat rakibga nisbatan ko'yilgan kelishmovchilikdan guvoxlik beruvchi kat'iy talab, shart bo'libna kolmay, shuningdek, dolzarb muammoviy vaziyat doirasidan tashkariga chikkan ochik dushmanchilik ko'rsatkichi xamdir.

Taxdid - bu konfliktda muayyan ma'noda taktik vositadir. Taxdid solish - terrorchi mafkurada davlatlar va terrorchilar xarakatlarining odatiy usulidir (garovga olish, samolyotni portlatish xavfi va b.).

Kurash dinamikasi. Konfliktda taraflarning biri yoki ikkalasi xam to'knashuvdan bosh tortishga yoki yon berishga xarakat kilmasa, u xolda karama-karshi kurash boshlanadi.

Taraflardan birining kuch jixatdan ancha ustunli uning ¦alabasini ta'minlagan xollarda , endi boshlangan konflikt juda tez tugashi mumkin. Birok, ko'p xollarda aksincha, konflikt uzok davom etadigan xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashkari, muayyan to'knashuvning tez yakunlanishi konfliktli vaziyatni barxam topishini anglatmaydi va konflikt yantdan avj oladi.

Millatlararo va siyosiy asosda konfliktlar ayniksa uzok vakt davom etadi. Xozir davrda ko'pchilik konfliktlarning ildizlari uzok o'tmishga va ommaviy ruxiyatning chukur katlamlariga borib takaladiki, ularning dastlabki asl sabablarini amaliy jixatdan aniklashning imkoni yo'k. Bunga misol kilib, ba'zi mamlakatlarda keng tarkalgan konli o'ch olish xolatlarini keltirish mumkin. Uzok davom etuvchi konfliktlar uchun keskin va nisbatan osoyishta xolatlarning, faol karama-karshilik kilish va o'ziga xos "tinch" davrlarning almashinib turishi xosdir.

Shaxslararo konfliktlarning bir turi bo'lgan oilaviy konfliktlar xam uzok davom etish xususiyatiga ega. Oilaviy konfliktlarda bir xil xolatlarning takrorlanishi, davriylik kuzatiladi. Oilaviy janjallar ko'pincha bir-birini takrorlaydi. Ular vaktinchalik tinchigandek bo'lsa xam, kelishmovchiliklarning xakikiy va yashirin sabablarini tugata olmaydi.

Konfliktning eng keskin boskichi bo'lgan kurash odatda xujum va mudofaaning almashinishi xamda muayyan sharoitlarga boglik turli xarakatlar va vositalarni ko'llashdan iborat. Xar kaysi taraf muayyan umumiy strateyaga rioya etishi mumkin va bunda xarakatlarning almashinuvi nazorat kilinishi mumkin. Muzokaralar vaktida to'xtatilgan kurash , agar ular natija bermasa yoki erishilgan kelishuv taraflardan biri tomonidan buzilsa, kayta tiklanadi. Xalkaro amaliyot muzokaralarni uzish yoki o't ochishni tugatish xakida bitimlarni buzish xollari kurashni yanada avj oldirganlini tasdiklaydi. Ba'zida muzokaralarning o'zidan rakiblardan biri vaktincha tinch xolatga erishish uchun taktika maksadlarida foydalanishi mumkin.

Bir гурущ konfliktolog mutaxassislarning fikricha, «Konflikt dinamikasi o'zaro munosabatlar va vaziyat xususiyatlarini yanada anik tushunishda, faoliyatni ko'p darajada samarali rejalashtirish va xarakatlanishda yordam kiladi. Bunday tushunishga 2 yo'l bilan erishiladi:

1) turli nuktai nazarlar asosida bu konfliktlarning batafsil taxlilini amalga oshirish;

2) bu konfliktlarga alokador aloxida masalalar va muammolarni tadkik kilish.

Konflikt taxlili deganda nuktai nazarlarning ko'pliga asoslanib konfliktning reallini tushunish va tadkik kilish amaliy jarayoni tushuniladi. Bunday tushunish keyincha strateya va xarakatlarni ishlab chikish asosiga ko'yiladi»[1].

Konflikt yetarli darajada ijobiy yo'nalishda rivojlanishi va mavjud ziddiyatni to'la yoki xech bo'lmaganda vaktinchalik xal kilish bilan tugashi mumkin. Birok, ko'pincha unda boshka xususiyat xam ustun kelishi mumkin : kurash avj oladi va keskinlashadi, konflikt o'sib boradi. Kurash dinamikasining bunday xolati odatda konflikt eskalasiyasi deyiladi.

Konflikt eskalasiyasi. Konflikt eskalasiyasining tashki namoyon bo'lish xususiyati - bu , eng avvalo , kurashning jadallashuvi xisob-lanadi. Konflikt spiralni burash metodi bo'yicha rivojlanadi : bir tarafning xarakati ikkinchi tarafning karshi xarakati bilan birga kechadi va bu keyin xarakat o'z okibatlarining ko'lamiga ko'ra konflikt boshlanishi nuktasidaga aynan bo'lmaydi.

Bir tarafning xarakatlari boshka tarafning ko'p marta kuchlirok va o'z navbatida yan tajovuzkor bo'lgan javob xarakatlarini keltirib chikaradi. Konflikt eskalasiyasi odatda vaziyatni shunchalik chigallashtiradiki, bunda konfliktda xak yoki aybdorlarni topish mumkin bo'lmay koladi. Konfliktolok tadkikotlarda bu masalada xam muayyan fikrlar bildirilgan:»Ba'zida konfliktni jadallashtirish zarur bo'ladi. Masalan, odamlarning xamma narsasi yaxshi bo'lganda, o'z extiyojlarini kondirishda xamma uchun xokimiyat va resurslar yetarli bo'lganda boshka odamlarning axvoli unchalik yaxshi emasli yoki ular bir chekkada kolib ketayotganliklari

e’tibordan chetda bo’ladi yoki bu xolatni tan olishni istamaydilar. Shunda zarur o’zgartirishlarni kiritishga imkoniyat paydo bo’lishi uchun konfliktni aniklash, uni oydinlashtirish zaruriyati yuzaga chikadi.

Jamoalar va inson xukuklarini rivojlantirish soxasida ishlovchilar ko’pincha ularning vazifalari bu konfliktni xal kilish emas, balki konflikt muammosining tan olinishi va faol xarakatlar boshlanishi eng yakkol namoyon bo’ladigan aynan konfliktning intensivlanishi ekanlini tushunib yetadilar. Bu ko’pincha manfaatiga putur yetkazilgan guruxga ko’shilish va shu gurux imkoniyatlarini orttirish uchun strateyadan foydalanish xisoblanadi. Masalan, JARda XX asr davomida vaziyatni o’zgartirishni maksadi deb bilgan faollar yashirin konfliktlarni ochik konfliktlarga aylantirish va keyinchalik ular bilan ish olib borish uchun kuch-¦ayrat sarf etganlar.

Konfliktlarni intensivlashtirish - bu muayyan tinch (zo’rlik ishlatishni nazarda tutmaydigan) maksadlarda yashirin konfliktlarni yanada oydinlashtirish va oshkora kilishdir.

Konflikt eskalasiyasi bu tanglik va zo’rlikning kuchayishi-dir»2.

Eskalasiya konfliktda ichki o’zgarishlarni xam keltirib chikaradi. Konflikt yakkol jadallashuvi sabablarini izoxlovchi asosiy o’zgarish bu konflikt predmetini va teshlicha o’zaro ta’sir shakllarining almashinuvidir.

Konfliktning sezilarli chukurlashuvi va kuchayishi bilan boglik eng keng tarkalgan va tipik xolatlardan biri bu nizoda asoslantirishdan e’tirozlarga, shaxsiy xakoratlashlarga, xatto jismoniy ta’sir ko’rsatishga o’tishdir.

Bu vaziyatda tankid shaxsni o’ziga o’zi baxo berishga bo’lgan taxdid sifatida kabul kilinadi, o’z o’ziga baxo berishni ximoya kilishga bo’lgan urinish konflikt predmetini “shaxsiy” darajaga ko’yishga olib kelishi mumkin. Totalitar va teokratik rejimlarda jiddiy tankid doimo davlat xavfsizliga xavf sifatida karalgan va kat’iy ta’kib kilingan. Parlament

tortishuvlarida, davlatlararo munosabatlarda boshkacha nuktai nazarni bayon etish ko'pincha o'z mavkeini o'tkazishga bo'lgan urinish deb baxolanadi.

Manfaatlar konfliktida predmet almashinuvi yuz berishi mumkin. Nizoli obyekt tufayli boshlangan karama-karshi kurash yanada keng mikyosda to'knashuvga aylanishi mumkin.

Manfaatlar konfliktida predmet o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishga "obyekt yo'kolishi" tipik misol bo'ladi. Uning mazmuni shundaki, nizoli obyekt tufayli boshlangan kurash yanada katta to'knashuvga aylanadi, bunda konfliktning dastlabki predmeti asosiy rol o'ynamaydi. Ko'shnilar o'rtasida yer tomorkalari chegaralari tufayli boshlangan janjal o'zaro dushmanchilik va xar xil shaxsiy noxushliklarni keltirib chikarishi mumkin. Kavkazorti va Shimoliy Kavkazda xududiy e'tirozlar tufayli boshlangan ko'p sonli konfliktlar o'zaro dushmanchilikka, tinch axoliga karshi genosidga olib kelgan.

Keltirilgan misollarda konfliktning "kattalashuvi" kuzatiladi, yanada chukur ziddiyatlarga o'tish to'knashuvning ko'pchilik turli nuktalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Konflikt yanada keng xududlarga tarkaladi, o'z episentrini o'zgartiradi. Konflikt eskalasiyasida yana xam ko'p mikdorda ishtirokchilarni jalb kilish xisobiga karshi kurashuvchi subyektlarning o'ziga xos "yiriklashuvi" yuz beradi. Individlar o'rtasida konfliktning guruxlararo konfliktlarga o'zgarishi, rakobatlashuvchi guruxlar tuzilmasining o'zgarishi va sonining ortishi ko'llaniladigan vositalar majmuini yanada samarali kuch ishlatish metodlari xisobiga kengaytirib konflikt xarakterini xam o'zgartiradi.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYoTLAR

## RO'YXATI:

**1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T., O'zbekiston.2003.**

**2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k. T., 1...**

**3.Karimov I.A. Uzbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chukurlashtirish va fukarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.T., Uzbekiston.2002. 76 b.**

**4.Karimov I.A. Bizning bosh maksadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yanlash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir. //Xalk so'zi, 2005 yil 29 yanvar.**

**5.Karimov I.A. Yan xayotni eskicha karash va yondashuvlar bilan kurib bo'lmaydi. //Xalk so'zi. 2005 yil 17 fevral.**

**6. Islamov Z.M. Davlat va xukuk.Umumiy masalalar. Davlat nazariyasi. T. Adolat. 2000.270-b.**

**7.Islamov Z.M. Obshestvo. Gosudarstvo. Pravo. T., 2001. TDYuI nashri.**

**8.Islamov Z.M. Uzbekistan: na puti k modernizasii. T.:TGYuI, 2005. – 160 s.**

**9.Islomov Z.M.Davlat va xukukning umumnazariy muammolari: xukukni tushunish, xukukiy ong va xukuk ijodkorli. T.: TDYuI, 2005. – 187 b.**

**10.Odilkoriyev X. Konstitusiya va fukarolik jamiyati. T.:Shark, 2002.**

**11.Kelzen G. Chistoye ucheniye o prave. M. :Progress, 1988.**

**12.Nersesyans V.S. Filosofiya prava. M. : Infra-Norma, 1997.**

**13.Alekseyev S.S. Pravo. M. :Statut, 1999.**